
TUMAN HOKIMINING TABRIGI

O'zbekistonda avgust oyining ikkinchi yakshanbasi qurilish sohasi xodimlari kuni sifatida nishonlanadi. Shu munosabat bilan Rishton tumani hokimi qurilish sohasi xodimlariga tabrik yo'lladi.

Muhtaram do'stlar! Avvalo, qurilish sohasida fidokorona mehnat qilayotgan siz, azizlarni kasb bayramingiz bilan chin qalbimdan tabriklab, barchangizga o'zimning chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman. Jonajon O'zbekistonimizning yangi qiyofasini barpo etish, vatanimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash, hayotimizni yanada obod va farovon etishda sizlar singari mohir quruvchi va muhandislar, usta va me'morlar, loyihachi va pudratchi tashkilotlar vakillari - ming-minglab bunyodkor insonlarning oliyanob mehnatini hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydi. Bugungi qutlug' ayyom - Qurilish sohasi xodimlari kuni diyorimizda keng nishonlanayotgani ham xalqimiz va davlatimizning sizlarga bo'lgan ana shunday samimiy hurmat-ehtiromidan dalolat beradi.

Aziz va muhtaram quruvchilar! Barchangizni kasb bayramingiz bilan yana bir bor tabriklar ekanman, ezgu faoliyattingiz va shaxsiy hayotingizda yangi yutuq va omadlar tilayman. Xonadonlaringizga doimo tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka yor bo'lsin! Qo'lingiz aslo dard ko'rmasin, hamisha sog'-salomat bo'ling!

**Sufhonjon Soliev,
Rishton tumani hokimi**

2022-08-13 09:47:50